O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi, 29-uy, tel: (62) 223-00-42, fax: 223-00-22

2024 - yil 1 - iyul 261-12-0-Q/24 Xorazm viloyati hokimligi

Viloyat hududidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorining ijrosi hamda viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 20-mayda “Viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i M.Xudayberganovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli, 2022-yil 12-iyuldagi PQ-316-sonli, 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-330-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti haqida”gi VI-81-62-12-0-K/24-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligi (F.Yuldashev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (M.Xudayberganov), viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (D.Niyazmetov)lar Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarorining 80-bandiga muvofiq Urganch tumani hududidan o‘tuvchi 4K931 “Urganch sh.- Chotko‘pir q.- Shovot sh.” avtomobil yo‘lining 1-2 km. oralig‘ida transport vositalari harakat tezligi 70 km/soat tezlikdan 50 km/soat tezlikka o‘zgartirilsin va 3.24 – “50 yuqori tezlik cheklangan”, 3.25 – “50 yuqori

tezlik cheklangan hududning oxiri” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida rasmiy e’lon qilinganidan keyin kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Bekchanov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**